

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA BADIY PSIXOLOGIZM

Mohinur Sherboyeva,
Qoraqalpoq davlat universiteti,
O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

Annotasiya:

Mazkur maqolada peyzaj orqali badiiy psixologizm holatlar tabiat tasvirlarni inson ruhiyatida aks etishi ko'rsatib beriladi. Badiiy psixologizm insonlarning ruhiy olamida kechayotgan o'y-fikrlar, munosabatlar, his-tuyg'ular, ruhiy holatini aks ettirishidir. Metafora inson dunyoqarashi takomili bilan bog'liq tushuncha, uning asosida bilim va malaka yaxlitligi jilvalanarkan, maqolada ramziy-majoziy metafora ya'ni insondagi ruhiy holatni hayvonlarga ham ko'chirgan holda Isajon Sultonning "Sog'inch" hikoyasi misolida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: peyzaj, metafora, badiiy psixologizm, ruhiy tasvir, tabiat tasviri ruhiy kechinma.

Аннотация:

В данной статье через пейзаж художественный психологизм показывает, как образы природы отражаются в психике человека. Художественный психологизм - Это отражение мыслей, отношений, чувств, душевных состояний людей, происходящих в их духовном мире. Метафора - понятие, связанное с совершенствованием человеческого мировоззрения, в основе которого отполирована целостность знаний и умений, в статье раскрывается символично-образная метафора, то есть на примере рассказа Исаджана султана "тоска", перенесшего душевное состояние человека и на животных.

Ключевые слова: пейзаж, метафора, художественный психологизм, духовный образ, образ природы духовное переживание.

Badiiy adabiyotda psixologik, ruhiy tasvirning, psixologizmning o'rni benihoya kattadir. Psixologizmni yuzaga keltirgan omillar esa tabiat tasviri, peyzaj hisoblanadi. Shuning uchun ham ijodkorlar aynan mana shu peyzaj, tabiat tasviri orqali hikoyasida qalamga olayotgan mavzuni nima haqida ekanligini, o'zining unga qarashlarini, qahramonlarning ruhiy dunyosini ular yashayotgan muhitni



aks ettiradi. Tabiat tasviri shu orqali yozuvchining ijodiy mahoratini ham qay darajada ekanligini namoyon qiladi. Yozuvchi tabiat tasviri orqali soʻz ketayotgan makonga munosabati yuzaga chiqadi. D.Quronov esa shunday taʼkidlaydi: "Badiiy psixologizm- badiiy asarda toʻlaqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-soʻzlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin." deya keltirib oʻtadi. Isajon Sultonning "Sogʻinch" hikoyasi orqali peyzaj inson ruhiyati, hatto hayvonlarda ham boʻladigan ruhiy holatlar ramzlar, metaforalar asosida keltiriladi. Hikoyaga bolalar qoshigʻidan namuna keltirib uni epigraf qilib olinadi. **"Shaftoli shoxidaman,**

Onamning yonidaman ,

Boray desam, yoʻl uzoq

Otamni sogʻinaman."

Epigrafning oʻzidayoq insonning ruhiy kechinmasi otaga boʻlgan sogʻinch koʻrsatib beriladi va hikoya shunday boshlanadi: *"Bir necha kundirki sovuq tushdi." Ertalab sahar tashqariga chiqsangiz, hammayoqni koʻz yetadigan olis-olislargacha oqish qirov-bulduruqlar qoplab yotganini koʻrasiz."* Hikoyaning boshlanishi kuz manzaralarini tasvirlash orqali boshlanadi. Yaʼni olti oydan beri oilasidan uzoqda yurgan Rahmatjonning oilasiga, farzandlariga boʻlgan sogʻinchi kuz manzarasini tasvirlash orqali ochib beriladi. Bundan yana anglashiladiki ota-onalar doimo farzandlari uchun jon kuydirib ishlashadi. Ota-onalar farzandlarini yulduz kabi nur sochib turishi yaʼni baxtli boʻlishi uchun oʻzlari hatto xira yogʻdu boʻlishganda tayyordir. Buni hikoyada ijodkor peyzaj orqali juda chiroyli tarzda tasvirlab beradi: "Osmon toʻla yulduz, tevaragini xira oqish yogʻdular oʻrab olgan" yaʼni ota-onalar farzandlarini har doim har tarafdan qoʻriqlab voyaga yetkazadi. Hikoyada insonda boʻlgan ruhiy holat musichada ham ramziy metafora orqali koʻchirilgan holda tasvirlanadi. Musich asli kabutarsimonlar oilasiga mansub boʻlib insonlar orasida, yaʼni kishilar yashaydigan hovlilarda turuvchi "yuvosh" va "begʻubor" qushdir. Shuning uchun ham ijodkor ruhiy kechinmani ochib berish orqali aynan mana shu musicha qushini tanlaydi. Musichani yozuvchi hikoyada shunday tasvirlaydi: "Musichaning bolalari munchoq-munchoq koʻzlari xira chiroqda yilt-yilt qiladi, och jigarrang mitti tumshuqchasining chetida ingichka sariq hoshiyasi ham bor, boʻyinlarini choʻzib-choʻzib chiyillashyapti. Patlari siyrak, qizgʻimtir terisi



shundoq ko‘rinib turibdi". Qahramon mana shu musichalardan zavq oladi, oz bo‘lsada oilasiga bo‘lgan sog‘inchini musicha polaponlaridan oladi va ular bilan birga uxlab turib, birga ovqatlanib birgalikda yashay boshlaydi. Musicha polaponlari bilan birga ekan o‘zini baxtiyor ota kabi his qiladi. Shunday bo‘lsada Rahmatjonning oilasiga, farzandlariga bo‘lgan sog‘inchi kundan-kun ortib borarkan ijodkor hikoyada shunday keltiriladi: " *Manzara o‘sha-o‘sha tong yorishgan, poyonsiz yastangan dalalar uzra bulduruqlar yiltiraydi. Tuproq yo‘l uzra ham mayda uchqunlar yog‘ilganga o‘xshaydi, yo‘llar, daraxtlar, tom bog‘otlari bari namchil, qorayinqiragan*". Ya‘ni qahramonning kun o‘tgan sari farzandlariga bo‘lgan sog‘inchi ortarkan uni kuz manzarasinining kundan kunga sovuqlashib o‘zgarib borishi orqali peyzaj bilan tasvirlab ko‘rsatadi. Inson hayotda yasharkan har xil insonlarga duch keladi. Ular esa insonni turli yo‘llarga boshlaydi, bu yo‘llarning ba‘zilari yaxshi bo‘lsa, ba‘zilari insonni yomon yo‘lga boshlaydi. Inson mana shunday vaqtda yomon yo‘lga kirmasligi lozimdir. Hikoyada shunday voqea ham tasvirlanadi ya‘ni Rahmatjon musicha polaponlarini ko‘chaga olib chiqqanida atrofida gilar unga turlicha maslahat beradi, ammo Rahmatjon bularning birortasiga ham e‘tibor bermaydi. "Xohlasangiz darrovgina shashlik qilib beraman", "...yaxshisi ana u kuchukka bering musichani" degalar ham bo‘ldi, ammo Rahmatjon unday qilmadi. Bu ham qahramonning mehr-oqibatli ekanligidan dalolatdir, bir so‘z bilan aytganda esa haqiqiy otadir. Vaqt faqat oldinga qarab yurgani kabi hayot ham vaqt kabi tez o‘tib ketadi, insonlar esa mehmondir. Yozuvchi huddi mana shunday munosabatni hikoyada anor barglariga qiyoslagan holda aks ettiradi. " *Anorning bargi kambar bo‘ladi, kuchi-quvvati bor mahalida to‘q, yashil, keyin esa sarg‘ish qizg‘imtir tus oladi, kuzda esa sarg‘ish, qizg‘imtir tus oladi, kuzda o‘zidan-o‘zi birin-ketin chirt-chirt tkila etadi*". Yani inson zoti ham kuch-quvvati bor vaqtida yosh, navqiron bo‘ladi. Vaqtlar o‘tishi bilan esa anor barglari singari sarg‘ayib, keyinchalik esa to‘kiladi ya‘ni inson bu dunyoni tark etadi. Ijodkor uslubining boyligini ham mana shundan ko‘rish mumkin. Ya‘ni ijodkor peyzaj orqali faqatgina tabiat tasviri yoki inson ruhiy kechinmalarini emas, balki hayot qonunlarini ham aks ettirib o‘tadi. Hikoyada ijodkor yana qahramonning farzandlariga bo‘lgan mehrini ham juda chiroyli tarzda aks ettiradi." *Mexribonlarim, axir sizlarni olti oydan beri ko‘rmadim-ku? Peshonangizdan, sochlaringizdan anqiydigan jannat ishlarini juda sog‘indimku, bolam! Tangrimning jannatlaridan kelgan rayhonlarim mening*". Otaning qanday zot ekanligini mana shundan ham ko‘rishimiz mumkin. Ota shunday zotki u uyiga



borsa uy fayzu-barakaga to‘ladi: "Men uyga borganimda uyimiz qut-barakaga to‘ladi, xum to‘la yog‘lar, xum to‘la guruchlar, mo‘l go‘shtlar". Ota faqatgina bu hayotda ertalabdan kechgacha tun-u kun qora mehnat qilib ishlab, oilasini, farzandlarini boqish uchun harakat qiladi, hech qachon o‘zini o‘ylamaydi va hayotidan hech qachon nolimaydi ham. Shuning uchun ham ota eng buyuk zotdir.

Xulosa qilinadigan bo‘lsa hikoyada inson ruhiy kechinmasi, sog‘inchi ruhiy-psixologizmi, tabiat tasviri orqali ochib beriladi. Hikoyada musicha ham bir ramz sifatida olingan. Musicha kabutarsimonlar oilasiga mansub ekan kabutar adabiyotda keng qo‘llanadigan yaxshilik, oyat belgilari ramzidir. Hikoya davomida faqatgina peyzaj orqali inson ruhiy kechinmalar emas balki hayotiy hodisalar haqida ham so‘z boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isajon Sulton "Sog‘inch" hikoyasi
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.- A.: Hayot nashriyoti, 2002
3. Shodiyev N. Psixologik tahlil prinsiplari, forma va vositalari O‘zbek tili va adabiyoti jurnali 2-son, 1978-yil
4. Umurov X. Badiiy psixologizm va hozirgi O‘zbek romanchiligi.- T., Fan 1983

